

**Guliston Davlat Pedagogika instituti
pedagogika fanlar nomzodi, dotsent
Bolibekov Alisher Abdusalomovich
taqrizi ostida**

**Tadjibayeva Xolidaxon Muzafarovna
O'qish joyi: Guliston Davlat Universiteti
Maktabgacha ta'lif yo'nalishi
5-bosqich talabasi
Ish joyi: Sirdaryo Pedagogika kolleji
o'qituvchisi
Telefon raqami: +998905157909
xoli_13@mail.ru**

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARINI MUVAFFAQIYATLI QILIB RIVOJLANTIRISHDA KITOBLARNING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni muvaffaqiyatli qilib rivojlantirishda kitoblarning o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Bolalarni yoshligidan kitobga muhabbatli shaxs qilib tarbiyalashimiz kerak. Shundagina bizning mamlakatimizdan ham jahonga mashhur buyuk shaxslar, Alisher Navoiy, Bobur, Ibn Sino, al-Beruniy, al-Xorazmiy ajdodlarimizga mos avlodlarni yetishtiramiz.

Kalit so'zlari: Maktabgacha ta'lif, bolaning muvaffaqiyati, kitoblarning o'rni, kutubxona, so'z boyligi, tadqiqotlar.

Abstract: This article provides information about the role of books in the successful development of children. We should raise children to be book-loving people from a young age. Only then, we will raise generations like our ancestors Alisher Navoi, Babur, Ibn Sina, al-Beruni, al-Khorazmi, who are famous in the world.

Keywords: Preschool education, child's success, role of books, library, vocabulary, research.

Аннотация: В данной статье представлена информация о роли книги в успешном развитии детей. Мы должны воспитывать детей любящими книги с раннего возраста. Только тогда мы воспитаем такие поколения, как наши предки Алишер Навои, Бабур, Ибн Сина, аль-Беруни, аль-Хорезми, известные в мире.

Ключевые слова: Дошкольное образование, успехи ребенка, роль книги, библиотеки, словарный запас, исследования.

KIRISH.

Hozirgi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lif tizimini yuksaltirish, respublikamizdagi maktabgacha ta'lif tashkilotlarining moddiy- texnik bazasini mustahkamlash, ularni mohir tarbiyachi va pedagoglar bilan ta'minlash va bolalarni maktabga sifatli tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev so'nggi yillarda sohaga katta e'tibor qaratmoqdalar. Undan tashqari yosh avlodni yanada bilimli va yetukli qilib tarbiyalashda kitoblar ularning hayotida juda ahamiyatga egaligini doimo ta'kidlaydilar. "Kitob o'qigan, o'zini ustida ishlagan odamda qanon bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. "Kattalar"ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz. Kitob o'qisangiz savol berishni bilasiz", degan edilar.

Maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bolaning xususiyatlari, imkoniyatlari, layoqati va qobiliyatini e’tiborga olgan holda uni shaxs sifatida mukammal rivojlantirishga qaratilgan ta’limdir. Bolaning dunyoga moslashishi uchun maktabgacha bo’lgan davr juda muhimdir.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni muvaffaqiyatli qilib rivojlantirishda kitoblarning o‘rnini yuqoridir. Bola miyasiga imkon qadar tezroq uning rivojlanishini rag’batlantiruvchi va qibiliyatini ochib beruvchi turli ma’lumotlar berilishi kerak. Ko‘pchilik psixologlar va miya fiziologiyasi bo‘yicha mutaxassislarining fikriga ko‘ra, go’daklikdan miyaga keluvchi foydali ma’lumotlar bolaning qobiliyatlarini ochadi va unda mustaqillikni rivojlantiradi.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Necha ming yillardan buyon insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyalii, kasb-hunarli va albatta baxtli bo‘lishining muhim omili – bu kitobga do‘sht bo‘lish, va kitob o‘qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o‘rnini bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.

Donishmandlardan biriga: “Inson kitob o‘qish orqali saodatga erishishi mumkinmi?” deb savol berishganda, u: “Kitob o‘qishning o‘zi saodatdir”, deya javob bergen ekan. Biz ham tarbiyalanuvchilarimizga ana shu saodatni tilaymiz.

Muqaddas bitiklarda ham avvalo so‘z bino bo‘lgan, deb aytildi. So‘z bu ilm olmoq, umrning mazmuni-mohiyatini, dunyoning sir-asrorini ma’rifat bilan anglashni bildiradi. Ayniqsa, yosh bolalar uchun kitob mutolaasi o‘ta muhimdir. Chunki, kitob orqaligina insonda badiiy tafakkur, did va dunyo qarash shakllanadi. Haqiqiy adabiyot to‘g‘risida mutolaa tasavvuriga ega bo‘lmay turib, hayotning mazmunini, qadr-qimmatini anglab bo‘lmaydi.

Kitob mutolaasi inson tafakkurini oshiradi, hayotga teran ko‘z bilan qarashga undaydi. E’tibor bergen bo‘lsak, so‘nggi vaqtarda yosh bolalar internet va turli ijtimoiy tarmoqlarga yoshlidan qiziqib ketib, kitobga qiziqmay qo‘yishmoqda. Bu bilimsizlikdan darak beradi. Shuning uchun prezidentimiz kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga bo‘lgan e’tiborni davlat siyosati darajasiga ko‘tardi. Ayniqsa yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyo qarashini yuksaltirishda ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, beshta tashabbus yo‘nalishi asnosida kitobga mehr-muhabbat kuchaytirildi. Natijalar samarasi o‘laroq bolalar o‘rtasida turli tadbirlar kitobxonlik kechalarida bellashuvlar o‘tkazilib ijobiy natjalarga erishilmoqda. Ko‘p kitob o‘qigan kitobxon turli yo‘nalishlarda moddiy va ma’naviy rag’batlantirilmoqda, jumladan qimmatbaho buyumlar, hatto, mashinalar sovg‘a qilinmoqda.

Ta’lim muassasalarida bu jarayon o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga, aql-zakovatini kuchaytirishga yordam bermoqda. Shuning uchun ham yoshlarni har tomonlama fikrlaydigan, ma’nан yetuk, har qanday axborotlarni aql bilan tahlil eta oladigan, barkamol inson qilib tarbiyalash bizlarning asosiy vazifamizdir.

Ushbu maqolani yozishdan oldin kitob va kitobxonlikka oid xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarini o‘qib chiqdim. Quyida ulardan ba’zilarini keltirib o’tmoqchiman.

Bolaning muvaffaqiyati ko’proq nimaga bog’liq?

Qanday qilib taniqli odamlar muvaffaqiyatga erishdilar? 10 000 soatlik qoida va "Daholar va begonalar" kitobi muallifi Malkolm Gladwell muvaffaqiyatni bir qator omillar bilan belgilab olishiga amin. Bu nafaqat mashaqqatli mehnat, balki juda ko‘p tashqi sharoitlar, iste’dod, xohish

va, albatta, omad. Hatto salbiy omillar (moliyaviy cheklovlар yoki tajovuzkor muhit) rivojlanishni rag'batlantirsа, foyda keltirishi mumkin.

Biroq, asosiy omillar bolaning istaklari va manfaatlaridir. Bolaga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya orqali siz juda ko'plab natijalarga erishishingiz mumkin.

Kaliforniya universiteti tadqiqotchilari bu savolga javob topishga qiziqdilar. Ular ushbu mavzu bo'yicha eng keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqdilar. Tadqiqot 20 yil davom etdi. Ishtirokchi davlatlar soni 27 ta, ishtirokchilar soni esa 70000 dan ortiq. Natijalar 2010 yilda nashr etilgan.

Savolning javobi – uyda kitoblarning ko'pligi! Uyida kitobi ko'p bo'lган oilalarning farzandlari ham ko'proq ta'lim oladi, ham ko'proq daromad topadi. Yaxshi kutubxona aql hamda pul olib keladi!

Gigant tadqiqotining eng hayajonli natijasi bu: ma'lum bo'lishicha, uydagi kitoblar soni qaysi diyorda tug'ilganingizdan, oilangizning ta'lim darajasidan, mamlakat faravonligidan, kasbingizdan va mamlakatdagi siyosiy tuzumdan ko'ra muhimroq ekan! Bu, albatta, juda yaxshi yangilik. Chunki kitob o'qish qo'limizdan keladigan va qimmatbaho bo'lмаган bir vositadir. Yaxshi kutubxona ayni paytda "imkoniyatlar tengligi" degan ma'noni ham anglatadi. Dunyodan armonsiz ketishni istagan har bir ota- ona farzandlari uchun yaxshi kutubxona qoldiradi.

Kitobsiz uy bilan 500 dan ortiq kitobi bo'lган uy o'rtasidagi farq ota- onaning o'qimagan, past ma'lumotli (mактаб) yoki oliy ma'lumotli (15-16 yillik ta'lim) o'rtasidagi farq kabi katta. Ota-onasi oliy ma'lumotli bo'lганlar o'rtacha

3, 2 yil ko'proq ta'lim oladilar. Agar siz oliy ma'lumotli bo'lmasangiz, tashvishlanishga hojat yo'q. Kamida 500 ta kitob bo'lган uyda ham huddi shunday natija beradi. Faqat bunda kitoblarning soni emas, mazmuni muhim! Ushbu kitoblarni xarid qilgan ekansiz, siz foydali bilim kuchiga ishonadigan, ongli muvaffaqiyatga e'tiborli va farzandingizning muvaffaqiyati haqida qayg'uradigan insonsiz. Endi siz farzandingizga qoldirishingiz mumkin bo'lган eng katta meros nima ekanini bilasiz. Bizning zamonda kuch bilimdan keladi, kitob esa bilimlar jamg'armasidir. Kitoblar teng imkoniyatlar vositasidir.

Farzandlaringizga qoldiradigan oxirgi moddiy meros sizning mulkingizdir. O'rtacha meros – bu sizning kutubxonangiz. Birinchi meros esa bu sizning so'z boyligingizdir.

Farzandlaringizga qoldiradigan birinchi meros – bu sizning so'z boyligingiz. Ular sizdan o'rganadigan narsalar – ularning hayotdagi boshlang'ich sarmoyasi. Hech o'ylab ko'rganmisiz: farzandingiz 3 yoshga to'lguncha, u bilan gaplashayotganda hammasi bo'lib nechta so'z qo'llardingiz? Go'dakligida unga murojaat qiladigan so'zlarining uning mактабдаги muvaffaqiyatga qanchalik ta'sir qilishini taxmin qilaolasizmi?

Kanzas universitetidan Betti Xartva Todd Risli 1960- yillarda ta'lim sohasida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borishdi. Ular 42 nafar oila ishtirok etgan tadqiqotni ishlab chiqishdi. Ular oilalar bilan tanishib, xonadonlardagi 7 oylikdan 3 yoshgacha bo'lган bolalarni kuzatib borishdi.

Natijalar qiziqrarli:

- Bola uch yoshga to'lgunga qadar ishlata dиган so'zlarining 86 foizdan 98 foizgacha ota-onasining til havzasidan keladi.

• Bola nafaqat oilada qo'llaniladigan so'zlarni ishlatadi, balki foydalanadigan so'zlarining soni, suhbating uzunligi va nutqi ham ota- onasiga juda o'xshaydi.

Uch yoshgacha shakllangan poydevor keyingi yillarda maktab muvaffaqiyatiga kuchli ta'sir qilishi isbotlandi. Til va o'qishni tushunish ko'nikmalarini o'lchaydigan imtihonlarda 3 yoshdag'i muvaffaqiyat bilan 9 va 10 yoshdag'i muvaffaqiyat o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjud.

Biz bu borada atrofimizdag'i odamlargagina tobe emasmiz. Hayriyatki, dunyoda kitoblar bor! Kitoblar shuning uchun mavjud! Tadqiqotga ko'ra bolalarga kitob o'qib berish suhbatdan ko'ra ko'proq ularning so'z boyligini oshiradi. Qo'llaniladigan so'zlar soni kabi muhim bo'lgan yana bir jihat – suhbat mazmunida qancha maqtov va qancha tanbeh borlidir. Dashnomli va qo'llab-quvvatlovchi til "tig"i bolalarning muvaffaqiyatiga katta ta'sir o'tkazadi. Shuningdek, oilada qo'llaniladigan so'zlarining ijobiy yoki salbiy ekanligi o'rganildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra:

- Obro'li oilalarda 6 ta ijobiy so'zga 1 ta salbiy so'z to'g'ri keladi.
- Kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun bu ko'rsatkich 2 ta ijobiy so'zga 1 ta salbiy so'z to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich "til jarohati"ning yuqorida rajasini bildiradi.

Til psixologiyasida 1 ta xato 5 ta to'g'ri erishish uchun, noto'g'ri so'zlarni umuman ishlatmaslik maqsadga muvofiq, xatoning o'rnini qoplashga urinishdan ko'ra uni sodir etmagan ma'qul. So'z boyligini oshirish va til jarohatlaridan ochish rivojlanishning asosiy maqsadi bo'lishi kerak.

Bolalarga taqdim etadiganimiz ijtimoiy muvaffaqiyatning "bosholang'ich sarmoyasi" bizning so'zlarimizdir. Birinchidan, ular bizning so'zlarimizni qabul qiladilar, keyin ular maktabdag'i darslarni shu so'zlar orqali tushunishadi, bu tushuncha ularda o'ziga ishonch bag'ishlaydi, o'zlariga bo'lgan ishonchning ortishi esa ularning yanada ishtiyoq bilan o'rganishlariga sabab bo'ladi, so'ngra ular hayotlarida muvaffaqiyatga erishadilar. Chunki ular bundan saboq oladilar. Ularning ichki dunyosini tashkil etuvchi so'z boyligi qanchalik chuqur, boy va keng bo'lsa, ular tashqi dunyoda ham shunchalik hukmronlik qila oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz uch yoshgacha, bola miyasi nodir qobiliyatlarga ega bo'lganida unga e'tibor berishimiz maqsadga muvofiqdir. Nima bo'lganda ham, qaysi davlat ilg'or tajribasidan foydalanmaylik, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish masalasi bolalarni tarbiyalashda, ularni maktabga tayyorlashda va Vatanimiz ravnaqi uchun hizmat qiladigan bo'lajak kadrlar tayyorlashda muhim hisoblanadi.

Kitob bizning hozirgi hayotimizdir. Hamma gap ular uchun kitob tanlashda, nomunosib tanlangan kitoblarni o'qish hech narsa o'qimagandan ko'ra yomonroq va zararliroqdir, degan fikrga qo'shilaman. Kitoblarning tanlanishi odamning fikr dunyosini, uning hayotiy qadriyatlarini ochib beradi. Bizning oliy maqsadimiz: kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni ta'lim-tarbiya olishlari uchun shart-sharoit yaratish, sog'-salomat ulg'aytirish, ularga ota-ona kabi mehr berishdir. Bolalarning barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishida ularning hayotida kitobning roli beqiyosdir. Ular qachon kitobga mehr beradi degan savolga yagona javob bor. Qachonki bolalarga o'zlarining dunyo qarashi va yoshiga mos kitob tanlay olsak, bolada kitobga muhabbat uyg'onadi. Bizning vazifamiz esa bunga ko'maklashishdir.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Педагогическое мастерство: материалы V Междунар. науч. конф. (г. Москва, ноябрь П24 2014 г.). – М.: Буки-Веди, 2014. – vi, 130 с.

2. Д71 Дошкольная педагогика с основами методик воспитания и обучения: Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения / Под ред. А. Г. Гогоберидзе, О. В. Солнцевой. — СПб.: Питер, 2013. — 464 с.: ил.
3. Masaru Ibuka “Uchgacha ayni vaqt” Toshkent. “Akademnashr” 2021.
4. Mo’min Sekman Dr. Bahar Erish. “Bolalar muvaffaqiyatga qanday erishadilar” Toshkent. “Yangi asr avlod” 2022.
5. Ashirova O'g'iloy " The importance of early education in the mental development of bolls" Journal of New Century Innovations.2022.
6. Колдина Дарья Николаевна <https://cyberleninka.ru/article/n/nuzhny-li-sovremennym-detyam-knigi/viewer>